BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING TA’LIMIY O‘YINLARDAN FOYDALANISHGA METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA TAJRIBA-SINOV ISHLARI MAZMUNI

Maxsudova Ravshanoy Turg’unboy qizi
Turon universiteti Andijon kampusi
Pedagogika va tillar kafedrasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’lim jarayonida o‘yin texnologiyalaridan foydalanishga metodik tayyorgarligini oshirish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarining mazmuni bayon etilgan. Tadqiqot davomida belgilangan vazifalar, talabalarning kognitiv, kasbiy va metodik kompetensiyalarini aniqlashga qaratilgan diagnostika usullari hamda maxsus ishlab chiqilgan so‘rovnoma tuzilmasi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak o‘qituvchi, ta’limiy o‘yinlar, metodik tayyorgarlik, kasbiy kompetensiya, tajriba-sinov, pedagogik mahorat, so‘rovnoma.

Abstract. This thesis describes the content of experimental work carried out to improve the methodical preparation of future primary school teachers to use educational games in the educational process. The tasks defined during the research, diagnostic methods aimed at determining the cognitive, professional and methodical competences of students, and the structure of a specially developed questionnaire are analyzed.

Keywords: future teacher, educational games, methodical preparation, professional competence, experimental work, pedagogical mastery, questionnaire.

Аннотация. В тезисе описано содержание экспериментальной работы, проведенной по совершенствованию методической подготовки будущих учителей начальных классов к использованию обучающих игр в учебном процессе. Анализируются задачи, определенные в ходе исследования, диагностические методы, направленные на определение когнитивных, профессиональных и методических компетенций студентов, структура специально разработанной анкеты.

Ключевые слова: будущий учитель, обучающие игры, методическая подготовка, профессиональная компетенция, экспериментальная работа, педагогическое мастерство, анкета.

Kirish . Zamonaviy pedagogik ta’lim oldida turgan dolzarb vazifalardan biri — oliy ta’lim muassasalarida talabalarni dars jarayonini interaktiv tashkil etishga o'rgatish, xususan, boshlang‘ich sinflarda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishdir. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan asosiy maqsad bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ta’limda o‘yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini takomillashtirish hamda ushbu faoliyatni amaliyotda qo‘llay olish darajasini eksperimental sharoitda tekshirish va baholashdan iboratdir.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari davomida qo‘llanilgan takomillashtirilgan mazmun, tashkiliy shakl, metod va vositalarning sabab-oqibat bog‘lanishlarini o‘rganish maqsadida qiyosiy samaradorlik tahlili o‘tkazildi. Tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar ijobiy hal etildi:

1. Talabalarning o‘yinli mashg‘ulotlarni tashkil etish va amalda qo‘llash kompetensiyalarining pedagogik imkoniyatlari tekshirildi.
2. Ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy natijalarning amaliy ahamiyati o‘rganildi va baholandi.
3. Eksperiment uchun maxsus tashkil etilgan o‘quv faoliyati muntazam kuzatilib, aniqlangan

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

kamchiliklar bartaraf etildi.
4. "Pedagogik mahorat" fani o'quv dasturlari (sillabus) mazmuni takomillashtirildi hamda talabalarga elektron lug'atlar, metodik va didaktik tavsiyalar targ'ib qilindi.
5. Bo'lajak o'qituvchilarning ta'limiy o'yinlardan foydalanishga tayyorgarligini baholash mezonlari aniqlanib, natijalar matematik-statistika usullari yordamida tahlil qilindi.

Tajriba-sinov ishlari doirasida OTMlarning "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi talabalari o'rtasida anketa so'rovnomalari, savol-javoblar va suhbatlar o'tkazildi. Diagnostika metodlari talabalarning kognitiv bilish jarayonlari, kasbiy ehtiyojlari, intellektual va psixologik holatlarini kompleks baholashga xizmat qildi. Ushbu tahlillar talabalarning kasbiy-metodik rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni va o'quv jarayonidagi bo'shliqlarni aniqlash imkonini berdi.

Eksperiment jarayonida talabalarning ta'limiy o'yinlardan foydalanishga metodik tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida maxsus diagnostik so'rovnoma (3.1-jadval) qo'llanilgan bo'lib, uning natijalari talabalarning amaliy ko'nikmalarini to'g'ri yo'naltirish asosi bo'ldi.

3.1-jadval

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'limda o'yinlardan foydalanishiga metodik tayyorgarligini aniqlash so'rovnomasi

№	SAVOLLAR	JAVOBLAR (Ha / Yo'q / Qisman)
1	Dars jarayonida ta'limiy o'yinlardan foydalanish haqida tushunchangiz bormi?	
2	Ta'limiy o'yinlarning turlarini bilasizmi?	
3	Mashg'ulotlarni tashkil etishda metodik va pedagogik tayyorgarligingiz bormi?	
4	Ta'limiy o'yinlarni tashkil etishda amaliy bilimlaringiz yetarlimi?	
5	Ta'limiy o'yinlarning o'ziga xos didaktik xususiyatlarini bilasizmi?	
6	Ta'limiy o'yinlar atamasiga ilmiy-pedagogik ta'rif bera olasizmi?	
7	Bugungi kunda zamonaviy o'qituvchiga qo'yilayotgan talablar haqida bilasizmi?	
8	Ta'limiy o'yinlar shaxsning ruhiy holati va bilish jarayonlariga ijobiy ta'sir etadi deb hisoblaysizmi?	
9	Shaxsning intellektual xususiyatlarini shakllantirishda o'yinlarning ahamiyatini bilasizmi?	

Xulosa . Olib borilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda tizimli ta'limiy o'yinlar metodikasini o'quv jarayoniga (xususan, "Pedagogik mahorat" faniga) integratsiya qilish talabalarning kasbiy motivatsiyasini, metodik modellashtirish qobiliyatini va ijodiy fikrlashini sezilarli darajada oshiradi. Matematik-statistika tahlillari tadqiqotda ilgari surilgan g'oyalarning pedagogik jihatdan samarali va ilmiy asosli ekanligini tasdiqladi.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva G.X. Boshlang'ich ta'limda o'yin metodikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU, 2022. – B. 26-45.
2. Vygotskiy L.S. Pedagogicheskaya psihologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991. – S. 120.
3. Kapp, K.M. (2012). The Gamification of Learning and Instruction: Game-based Methods and Strategies for Training and Education. San Francisco: Pfeiffer. – p. 45.
4. Mavlonova R., Rahmonqulova N. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2013.
5. Ishmuhammedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008.

Mualliflik huquqi egasi tomonidan ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.